

91.
V-30

X.VAXOBOV, N.R.ALIMKULOV, N.B.SULTANOVA

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI



98.
V-30

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

X.VAXOBOV, N.R.ALIMKULOV, N.B.SULTANOVA

- 5439 - 120

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

(Darslik)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021

ati
ab
ga
di,
ib,

im
ari
da
dir
tab
lan

im
va
shi
an,
va

lik

va
qot
shi,
iya
ari,
iga

tab
tish
va
an.
kur
nik

deb
lar,

KBK: 26.8я7
V 30
UO'K: 91(075)

ISBN 978-9943-6939-6-8

Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B.

Geografiya o'qitish metodikasi [Matn] : darslik / X. Vaxobov,
N.R. Alimqulov, N.B. Sultanova. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. - 360 b.

Ushbu darslikda bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari, rivojlanish tarixi, geografiya o'qitishning dolzarb muammolariga doir ma'lumotlar berilgan.

Darslik 5110500 – “Geografiya o'qitish metodikasi”, “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishlari talabalari va geografiya fani o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

P.Baratov – Nizomiy nomidagi TDPU, prof.

Sh.M.Sharipov – O'zbekiston Milliy universiteti, “Geografiya va tabiiy resurslar” fakulteti dekani, g.f.n., dots.

Geografiya o'qitish metodikasi: 5110500 – “Geografiya o'qitish metodikasi” va “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi talabalari va geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

© **X. Vaxobov**, N.R. Alimqulov, N.B. Sultanova.
© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.

KIRISH

O'zbekistonda ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi.

O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalari va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarda bo'lganidek, maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan xolda qaytadan ko'rib chiqildi.

Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya o'qitish metodikasida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash zaruriyatining vujudga kelishi munosabati bilan o'qitish metodikasida tubdan o'zgarishlar, xususan, geografiya faniga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va dasturiy ta'minotlarni yaratishga kirishildi.

Shu munosabat bilan mazkur darslik tayyorlandi. Mazkur darslik kirish va besh qismdan iborat:

- I-qism Geografiya o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, rivojlanish bosqichlari, geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish muammolari, xorijda geografiya fanining o'qitilishi, xalqaro baholash tadqiqotlari va uni o'ziga xos tomonlari, geografiya fanini o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, maktab geografiyasining mazmun, tarkibi va o'qitish texnologiyalariga bag'ishlangan.

- Darslikning II-qismi o'qitish metodlariga qaratilgan, unda maktab geografiyasining mazmuni va tarkibi, o'qitish metodlari tasnifi, o'qitish usullari o'qitishda pedagogik texnologiyalar, noana'naviy usullar va kompyuter texnologiyalardan foydalanish tajribasiga katta e'tibor berilgan.

- Darslikning III-qismida o'quv vositalari yoritilgan bo'lib, mazkur qismda o'quv ko'rgazmali qurollar, asbob va jihozlar, natural va texnik vositalari, ular bilan ishlash texnologiyasi berilgan.

- Darslikning IV- geografiya ta'limini tashkil etish shakllari deb nomlangan qismida geografiya darslari va ularga qo'yiladigan talablar,

dars tiplari, geografiya darslarini rejalashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar, qo'yiladigan talablar va shakllantirish metodikasi, geografiya xonasi va uni jihozlash haqida bilimlar yoritilgan.

- Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar darslikning V-qismida berilgan. Unda sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari, sinfdan tashqari ishlarning shakllari hisoblanga o'quv sayohatlari, to'garaklar va ularni o'tkazishni ilmiy-metodik asoslari yoritib berilgan.

Darslikning mukammal bo'lishi yuzasidan fikr-mulohazalarni Nizomiy nomidagi TDPU, Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga yuborish so'raladi va fikr bildirgan ustozlar va hamkasblarga avvaldan minnatdorchilik bildiriladi.

I-QISM. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

I BOB. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. Geografiya o'qitish metodikasi fan va o'quv fan sifatida

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy majmualarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimi tushuniladi.

Geografiya ta'limi metodikasi esa umumta'lim maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandir.

Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umumiy va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;

c) ta'lim va tarbiyaning birligini amalga oshirish;

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat: umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi.

Umumiy geografiya o'qitish metodikasi – bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

Geografiya o'qitishning hususiy metodikasi – alohida o'quv predmetlarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy xolatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi.

Xususiy geografiya o'qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga xos hususiyatlarini ishlab chiqadi. Hususiy geografiya o'qitish metodikasi alohida geografiya fanlarining mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursining mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarni shakllantirish, o'quv ishlari usullarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi.

1.1. Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari

Geografiya fanining maqsad va vazifalari turli davrlarda o'zgarib va qaytadan shakllanib turgan. O'qitishning maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va geografiya o'qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish maktab geografiyasining tuzilishi, mazmuni va o'qitish metodlarining turlari bilan bog'liq. XX asr davomida o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davrda (XXI asr) ham geografiya ta'limining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda.

Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fani asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonlari, tamoyil (prinsip)lar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur tamoyil va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab geografiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Geografiya o'qitish metodikasining *obyekti* - mazkur o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon.

Geografiya o'qitish metodikasining *predmeti* - geografik ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, shakllari, o'quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir.

Geografiya o'qitish metodikasining *maqsadi* – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish.

Geografiya o'qitish metodikasining *vazifasi* – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish. Shuningdek geografiya o'qitish metodikasi quyidagilarni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi:

- bo'lajak o'qituvchilarga geografik o'quv fanlar bo'yicha chuqur va atroflicha bilim berish;
 - maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;
 - maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;
 - maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;
 - geografiya darslarini tuzilishi, tarkibi va turlarini yanada takomillashtirish;
 - geografiya o'qitishni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;
 - geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;
 - o'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish;
 - o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.
- Geografiya o'qitish metodikasi talabalar va o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

1.2. Geografiya ta'limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Geografiya o'qitish metodikasi qator tabiiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'langan. Geografiya o'qitish metodikasini geografiya fani bilan bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- geografiya fani maktab geografiyasi mazmuni asosini tashkil qiladi va uning rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Geografiya fanidagi yutuqlar